

## IJTIMOIYLASHUV MUAMMOSI SIFATIDA BOLA PSIXIKASINI RIVOJLANISHI

*Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Abdumajidova Mahdiyona Dilmurodjonovna**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Maxsus pedagogika: Logopediya yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi*

**Yakubova Umidaxon**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada asosan bolalarning psixikasi, ularning ijtimoiy hayotda qanday rivojlanishi, ijtimoiylashuv o'zi nma?, u bolaning hayotida qanday ro'l oynaydi va qanday ta'sir qilishi haqida so'z yuritiladi. Bolaning shaxs bo'lib yetishishida ijtimoiy muhitning qanchalik ahamiyatli ekanligi ushbu maqolaning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** shaxs ijtimoiylashuvi, sotsializatsiya, bola psixikasi, shaxs shakllanish sohalari,

Ijtimoiylashuv- biologic mavjudot, go'dakning tamomila oila, guruh umuman olganda insoniyat jamiyatini to'laqonli a'zosiga asta-sekin aylanish jarayoni sifatida, yangi ijtimoiy xulq-atvorni egallash jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan shart sharoitlarni- **ijtimoiy institutlar** deb ataymiz.

Ijtimoiylashuv nima ekanligini bildik endi bola ijtimoiylashuvi haqida so'z yuritsak.

Bola ijtimoiylashuvi-bu uning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy qoidalarni o'zlashtirilishi va shaxs sifatida shakllanishi hisoblanadi. Albatta, bu jarayon murakkab

holda amalga oshiriladi desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Bolaning ijtimoiylashuvi jarayoni ya'ni uning hayotida dastlabki asosiy ijtimoiy instituti sifatida, hech ikkilanmay uning **OILAsini** keltirishimiz mumkin. Bolaning dastlabki qadriyatlari, uning axloqiy sifatleri, kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishida oila- ota-onasi va qarindoshlarini o'rni benihoya katta.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o'choqlariga **maktab va boshqa ta'lim maskanlari kiradi**. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va ta'lim jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtiriladi. Bizning ijtimoiylashuv tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta'lim oladigan bola bilimlar tizimini o'zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv ta'limiy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu muhit tbiiy o'z a'zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yo'naltirib turadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti bu- **mehnat jamoalaidir**.bu muhitning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan ma'lum tajribaga ega bo'lgan hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan qanday o'zaro munosabatlari muhit ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim me'zonlaridandir.

Shaxs sotsializatsiyasi haqida gap ketarkan, aytish kerakki, sotsializatsiya sof ijtimoiy-psixologik tushuncha bolib u individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borishi jarayonidir.

Shaxsning ijtimoiy mavqei – bu shaxsning uning huquq va majburiyatlari, yoshi, jinsi, kelib chiqishi, kasbi, oilaviy ahvoliga mos ravishda jamiyatda egallagan o'rnidir. Shaxsning ijtimoiy mavqeini ikkiga ajratish mumkin :

1. Tug'ma
2. Egallagan

Tug'ma – bu ijtimoiy kelib chiqishi, millati va b. lar bo'lsa

Egallagan – bu keyinchalik egallagan malaka, tajriba va ko'nikmalari bo'ladi.

Demak, ijtimoiy mavqe shaxsning muayyan ijtimoiy tizimda egallagan konkret o'rnini ifodalaydi, ijtimoiy ro'l esa uning ijtimoiy tizimda egallagan mavqeidan kelib chiqib amalga oshiriladigan faoliyati ifodalaydi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi o'rnini yuksalib boradi. Bu jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir biriga ta'sir etish darajasi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi uning sekinlik bilan yuksak ta'lim va tajribaga, shuningdek, yuqori kasbiy malakaga asoslanishi bilan yuqorila boshladi. Albatta bola psixikasini rivijlanishi bu muhim va dolzarb bo'lgan mavzulardan biridir. Bolaning psixik rivojlanishi - bu uning tug'ilganidan boshlab atrof-muhit ayniqsa jamiyat bilan aloqasi orqali shakllanadigan murakkab jarayondir. Bola tabiatan ijtimoiy mavjudot bo'lib, uning psixik rivojlanishi to'liq ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga bog'liq. Ya'ni yuqorida ta'kidlab o'tkan ijtimoiy qarashlarni bo'sib o'tadi. Ammo bu jarayon har doim ham silliq kechmaydi. Uning rivojida ijtimoiylashuv muammolari yuzaga kelishi mumkin: masalan, aloqa o'rnatishda qiynalish, atrofdagilarni tushunmaslik, tajovuzkorlik yoki o'ziga tortilib qolish holatlar.

Mazkur holatlarni oldini olish uchun bolaga e'tiborliroq bo'lish, mehribonlik, muloqotga ochiq va barqaror ijtimoiy muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiylashuvdagi buzilishlar bolaning keyingi hayotida ham moslashuv qiyinchiliklariga olib kelishi mumkin.

To'g'ri va o'z vaqtida ko'mak ya'ni tarbiya, psixologik va pedagogik yordam bola rivojini normallashtiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ivanov I, Zufarova M. "Umumiy Psixologiya". O'z.FMJ. 2008.
2. Xaydarov F.I, Xalilova N. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti". – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
3. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To'ychiyeva S.M. "Yosh va pedagogik psixologiya" T.TDPU,2009
4. Dars majmualari va internet manbalari